



CHANGE IN THE MEANING OF VERTICAL ACTION VERBS IN ARABIC UNDER THE INFLUENCE OF PREFIXES

Dilbar Hikmatullayeva

2nd-year Master's student in Linguistics
 Tashkent State University of Oriental Studies
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: *verb category, verb semantics, action verbs, prepositions, Arabic linguistics.*

Received: 03.04.25

Accepted: 05.04.25

Published: 07.04.25

Abstract: The article analyzes the changes in the meanings of widely used action verbs in Arabic under the influence of prepositions. Among the verbs of action in Arabic, there are many verbs that have multiple meanings, sometimes used in their original meaning, and sometimes in completely different meanings. The original meaning of the verb is associated mainly with the subject's normal state, while other meanings serve to express his emotional state. When studying the lexical-semantic connections associated with action verbs in Arabic, it is important to pay special attention to the prepositions with which these verbs are used, since a particular action verb may require different prepositions depending on whether the object to which the action is directed is animate or inanimate.

ARAB TILIDA VERTKAL YO'NALISHDAGI HARAKAT FE'LLARI MA'NOLARINING OLD KO'MAKCHILAR TA'SIRIDA O'ZGARISHI

Dilbar Xikmatullayeva

Lingvistika mutaxassisligti 2-kurs magistranti
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fe'l kategoriyasi, fe'l semantikasi, harakat fe'llari, old ko'makchilar (predloglar), arab tilshunosligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi keng iste'molda bo'lgan harakat fellari ma'nolarining old ko'makchilar ta'sirida o'zgarishi tahlil qilinadi. Arab tilidagi harakat fe'llari orasida polisemantik ma'nolarni anglatuvchi fe'llar ko'p uchrab, ular ba'zan o'zining asl ma'nosida qo'llansa, ba'zan esa umuman boshqa ma'nolarda ham keladi. Fe'lning

dastlabki, asl ma‘nosi asosan, sub’ektning oddiy holati bilan aloqador bo‘lsa, boshqa ma‘nolari esa uning emotsiyal holatini ifodalashga hizmat qiladi. Arab tilida harakat fe‘llariga taalluqli leksik-semantik munosabatlarni o‘rgnishda, ushbu fe‘llarning qaysi old ko‘makchilar bilan birga kelayotganligiga ham alohida ahamiyat bermoq lozim, chunki muayyan bir harakat fe‘li ish-harakat qaratilgan ob’ektning jonli yoki jonsiz ekanligiga ko‘ra ham turfa xil old ko‘makchini talab qilishi mumkin.

ИЗМЕНЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ГЛАГОЛОВ ВЕРТИКАЛЬНОГО ДЕЙСТВИЯ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ ПОД ВЛИЯНИЕМ ПРЕДЛОГОВ

Дильбар Хикматуллаева

Магистрант 2-го курса по специальности "Лингвистика"

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: категория глагола, семантика глагола, глаголы действия, предлоги, арабская лингвистика.

Аннотация: В статье анализируются изменения значений широко употребляемых глаголов действия в арабском языке под влиянием предлогов. Среди глаголов действия в арабском языке есть много глаголов, имеющих многозначное значение, иногда употребляемых в своем первоначальном значении, а иногда в совершенно других значениях. Первоначальное значение глагола связано в основном с обычным состоянием субъекта, тогда как другие значения служат для выражения его эмоционального состояния. При изучении лексико-семантических связей, связанных с глаголами действия в арабском языке, важно обращать особое внимание на то, с какими предлогами употребляются эти глаголы, поскольку конкретный глагол действия может требовать разных предлогов в зависимости от того, является ли объект, на который направлено действие, одушевленным или неодушевленным.

Arab tilshunosligida fe‘l deganda harakatni ifodalaydigan so‘zlar tushuniladi. Bunday so‘zlar qat’iylikni, yangilanish hamda sodir bo‘lishni ifodalaydi. Arab tilshunos olimlari fe‘l muayyan bir hatti - harakatni ifodalab, ushbu hatti-harakat egaga yoki biror bir voqeа-hodisaga tegishli bo‘lishini ta‘kidlaydilar. Arab tilidagi fe‘llarni semantik jihatdan ham bir qancha tomonlarini ajratib o‘rganish mumkin. Harakat fe‘llari biz bajaradigan harakatlar yoki sodir bo‘ladigan narsalarni tasvirlaydi. Holat fe‘llari narsalarning «mavjudligi» ni anglatadi - ularning tashqi ko‘rinishi, holati, hidi va boshqlarni

ifodalaydi. Holat va harakat fe'llari orasidagi eng muhim farq shundaki, harakat fe'llari doimiy zamonda ishlatilishi mumkin va holat fe'llari esa doimiy zamonda ishlatilmaydi.

Arab tilidagi harakat fe'llarining qo'llanilishi haqida tadqiqot olib borgan Rovvaq Samah harakat fe'llarini bir qancha guruhlarga bo'lib o'rgangan. Jumladan,

- 1) Gorizontal yo'nalishdagi harakat harakat fe'llari (أفعال الحركة الانتقالية أفقية الاتجاه);
- 2) Vertikal yo'nalishdagi harakat fe'llri (أفعال الحركة الانتقالية رأسية الاتجاه);
- 3) Erkin ko'chishni anglatuvchi harakat fe'llari (أفعال الحركة الانتقالية المطلقة).

Ushbu maqolada vertikal yo'nalishdagi harakatni bildiruvchi fe'llar ma'nolarining old ko'makchilar ta'sirida o'zgarishlari tahlil qilinadi. Bunday fe'llar ikki guruhga ajratiladi:

- 1) Tepaga yo'nalgan harakat fe'llari:

Bu fe'llardan aksar hollarda “olib bormoq, ko'tarib olib bormoq, tashimoq, elmoq, ko'chirmoq, ko'tarmoq (yukni)” ma'nolarida keladi.

قَالُوا مَا أَخْلَقْنَا مَوْعِدَكُمْ لِكُنَّا حُمَّلْنَا أُوزَارًا مِّنْ زِيَّةِ الْقَوْمِ فَقَذَّفْنَاهَا فَكَذَّبَ أَقْرَى السَّامَرِيُّ

“Ular: “Biz senga bergen va'daga o'z ixtiyorimiz ila xilof qilmadik. Lekin bizga u qavmning ziynatidan og'irliklar yuklangan edi. Bas, ularni tashladik, Somiriy ana shunday ilqo qildi”, dedilar.” [3:87]

مَنْ أَعْرَضَ عَنْهُ فَإِنَّهُ يَحْمِلُ يَوْمَ الْقِيَامَةِ وَزُرًّا

“Kim undan yuz o'girma, albatta, u qiyomat kuni (gunoh) yukini ko'tarur” [3:100]

يجب على المسافرين في الصحراء دائمًا حمل المياه العذبة للبقاء رطباً

Cho'ldagi sayohatchilar namlikni saqlash uchun doim ichimlik suvi olib yurishlari kerak.

Ko'rib turganimizdek, fe'li va undan yasalgan so'zlar old ko'makchisiz yoki komakchilar bilan kelgan. Bu fe'l yuqorida على bilan “(biror k. ga yoki biror n. ga nimnididir) yuklamoq” ma'nosida kelgan. Fe'l old ko'makchisi bilan kelganda “(biror n. ga) tashlanmoq, hujum qilmoq, (biror k. ga qarshi) kampaniya olib bormoq” ma'nosida ham ishlatiladi.

فَمَتَّلَّهُ كَمَثَلُ الْكَلْبِ إِنْ تَحْمِلْ عَلَيْهِ يَأْهُثُ أَوْ تَثْرُكُهُ يَأْهُثُ

“Bas, uning misoli huddi bir itga o'xshar, uni haydasang ham, tilini osiltirib turaveradir, tek qo'ysang ham, tilini osiltirib turaveradiradir” [3:176]

Ya'ni, bu yerda “unga tashlansang ham” ma'nosida tushunish mumkin.

– حمل عليه حملة شعواء U unga qarshi shiddatli kampaniya olib bordi.

Bu fe'l ko'makchisi bilan “(biror n. ni biror k. ga) taalluqli, mansub deb hisoblamoq” mazmunida ham ishlatiladi.

حمل fe'li ayrim so'z, so'z birikmalari va old ko'makchilar bilan turli ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan, “(biror hissiyotga) ega bo'lmoq” ma'nosida keladi. Jumladan, حقد – “nafrat, g'azab, kek” so'zi va لـ bilan “yomon ko'rmoq, (biror k.dan) nafratlanmoq”, فكرة طيبة “yaxshi fikr” birikmasi

va old ko‘makchisi bilan kelib “(biror k. ga nisbatan) yaxshi fikrda bo‘lmoq” tarzida tarjima qilinadi.

حمل الحقد لصاحبه - U o‘z xo‘jayinidan (yoki do‘sti) nafratlandi.

حمل فكرة طيبة عن صاحبه - U o‘z xo‘jayini (yoki do‘sti) haqida yaxshi fikrda bo‘ldi. .

حمل أمراضها معدية - yuqumli kasalliklarni tarqatib yurmoq.

رفع (a) رفع“ko‘tarmoq, tepaga ko‘tarmoq, yuqoriga ko‘trmoq” vertical harakatni anglatuvchi fe’ldir. Bu fe’l ish-harakatini asosan pastdan yuqoriga yo‘nalishini atglatadi.

رفع الانتقال - sport. shtanga ko‘tarmoq

رفع العلم - bayroq ko‘tarmoq

رفع صوتهم عاليا احتجاجا على - ...qarshi norozilik bildirib ovoz ko‘tarmoq

رفع عينيه الى - ...ga qaramoq, ko‘z tashlamoq

هلَّ عِيدُ عَرْشِكَ وَالرَّبِيعُ تَحَالِفًا؟ [5:47]

“Taxtingiz va bahoringiz ittifoqqa aylandimi, u yo bundan byroqlar ko‘tardingizmi?”

سما“baland bo‘lmoq, yuqoriga ko‘tarilmoq, (biror n.dan) yuqori bo‘lmoq” fe’liga kelsak, u asosan old ko‘makchisi bilan ishlatiladi. Lekin الى old ko‘makchish bilan “(biror.n.gacha) ko‘tarilmoq” ma’nosida ham qo‘llaniladi.

سما الطائراً علا وارتفع في السماء - Qush yuksaklikka ko‘tarildi va samoga yetdi.

سما في الحَسَبِ والنَّسَبِ - U aslzodalikga yuqoriladi.

و في صانع الثّايم ، شَسْمُو قَصَائِدِي و يَرْجُحُ فِي دُنْيَا الْعُرُوبَةِ مِيزَانِي [5:51]

“Tarix yaratuvchisi oldida she’rlarim yuksalib, arab olamida ustunlikka erishadi.”

بين ما فيك من زري المغاني شيد بيت سما إلى الجوزاء

“Manfur, tuban qo‘shiqlardan Javzogach bayt qurildi (ko‘tarildi)”

Mazkur fe’l shu old ko‘makchi bilan kelganda semantik ma’nosh butunlay o‘zgarib, “(biror. n. ni) zo‘r berib olishga intilmoq, zo‘r berib talab qilmoq” ma’nolarida qo‘llanilishi mumkin.

سما إلى الشيء: طمَحَ إلى تحقيقه - Bir narsani talab qildi: ya’ni, uni amalga oshishini talab qildi

سما همتـه إلى معالي الأمور: طلب العـز و الشرـف - U o‘z tirishqoqligi bilan hamma narsadan ustunlikka intildi: ya’ni, izzat va hurmat talab qildi.

سما harakat fe’li بـ old ko‘makchish bilan kelib, “(biror. n. ni) ko‘tarmoq” ma’nosida ishlatiladi. نظر“nazar, qarash”, بـ“qarash” so‘zleri bilan kelib esa “qaramoq, ko‘z tashlamoq” deb tarjima qilinadi.

سـموـثـ اليـهـ بـصـريـ وـ سـماـ اليـهـ بـصـريـ [6:352] - Men unga qaradim va meni nazarim (ko‘zim) unga tushdi.

Arab tilida eng ko‘p ishlatiladigan vertikal harakat fe’llaridan biri صعد (a) صُعُودٌ “ko‘tarilmoq, chiqmoq, ko‘tarilib ketmoq (samolyot haqida)” fe’lidir. Bu fe’l asosan old ko‘makchilarsiz qo‘llaniladi va ismni tushum kelishigiga qo‘yadi.

إِلَيْهِ يَصْعُدُ الْكَلْمُ الطَّيْبُ وَالْعَمَلُ الصَّالِحُ يَرْفَعُهُ

“Unga xush kalomlar yuksalur va solih amal ko‘tarur uni” [3:435]

– صعدنا الجبل – Biz toqqa chiqdik (ko‘tarildik).

– صعد السلم شجرةً – U narvonda daraxtga chiqdi (ko‘tarildi).

/ صعدنا إلى الجبل / Lekin bu holatda old ko‘makchilarini ham qo‘llash ham mumkin. – صعد في السلم إلى شجرةً / Biz toqqa chiqdik, U narvonda daraxtga chiqdi (ko‘tarildi). صعدنا في الجبل /

II bob “tez-tez (uzoq) ko‘tarilmoq, chiqmoq” ma’nosida keladi. Lekin bu bob في old ko‘makchisi bilan kelganda antonimik ma’no “pastlamoq, pastga qarab yurmoq” ma’nosida ishlatalishi mumkin.

– صعد في الوادي – Vodiyga tushdi

Fe’lning IV bobi ham “ko‘tarmoq, yuqoriga tortmoq” harakat ma’nosini angatsa, old ko‘makchisi bilan kelib, “yurmoq, kezmoq, bormoq” ma’nosidagi gorizontal harakatni anglatuvchi harakat fe’liga aylanadi.

[6:352] - أصعد في الوادي – Vodiyda kezdi.

Bu fe’lning V bobi “ko‘tarilnoq, bug‘lanmoq (bug‘day) uchib ketmoq”, VI bobi تصاعد “asta-sekin ko‘tarilmoq (alanga, tutun haqida)”, “boshqalar bilan ko‘tarilmoq”, X bobi استصعد “ko‘tarilmoq” ham harakat ma;nosidagi fe’llardir.

Vertikal yo‘nalishdagi harakatni bildiruvchi علا (غلو) 1 (u) yuksak bo‘lmoq, yuksalmoq, ko‘tarilmoq, yuqorilamoq”, “2) baland bo‘lmoq (ovoz haqida)”, “3) (biror n.ni) bosmoq, yopmoq, (biror n.ni ustiga) o‘tirmoq, (biror n. ustida) paydo bo‘lmoq)” kabi bir qator ma’nolari mavjud.

[4:399] - الحق يعلو و لا يعلى عليه – Haqiqat yuksaladi, yndan yuksagi yo‘qdir.

– و علت على وجهه علام الدشة – Uning yuzida hayrat ifodasi paydo bo‘ldi.

– علا خصمه بالسيف – Dushmanini qilich bilan urdi.

– علا فوق الماء – U suvda suzdi.

– علا نجمها / علا شأنه / علا ذكره – Biror ishda u muvaffaqiyat qozondi (yutuqqa erishdi) va mashhur bo‘ldi. (so‘zma - so‘z: uning yulduzi ko‘tarildi, uning obro‘sni oshdi, uning zikri ko‘paydi)

– علا fe’li ب old ko‘makchisi bilan kelganda ba’zida “o‘zini baland deb hisoblamoq” ma’nosini bildiradi, old ko‘makchisi bilan kelganda esa “nimanidir qilishdan o‘zini yuqori deb hisoblamoq, nimanidir qilish o‘z sha’nidan past deb hisoblamoq” ma’nolarida kelishi mumkin.

أعلى Bu fe’lning boblarida ham harakat ma’nolarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, IV bob “ko‘tarmoq, yuksaltirmoq”, V bob “balandlamoq, yuksalmoq”, VIII bob (biror n. ni) tepasiga chiqmoq, ko‘tarilmoq”, “o‘tirmoq”, X bob “ko‘tarilmoq, balandlamoq”.

– يتعلّى البناء يوماً بعد يوم – Bino kundan – kunga balandladi.

– اعتلى المثلث عرشاً جديداً – Shoh ajodolari taxtiga o‘tirdi

اعتلی الطائر الى السماء – Qush ko'kka ko'tarildi

VIII bobi old ko'makchisi bilan kelib "(n. nadir) ko'tarmoq" ma'nosida ishlatiladi.

اعتلی زید برأسه – Zayd boshini ko'tardi.

X bobi على bilan kelib "gerdaymoq, kekkaymoq, faxrlanmoq, (k.dandir) ustun bo'lmoq" ma'nolarini beradi.

استعلی الحق على الباطل - استعلی العدل على الظلم – Haqiqat yolg'ondan ustun bo'ladi – adolat zulmdan ustun bo'ladi.

الغريب الذي في وسطك يستعلي عليك متصاعدا وانت تتحط متازلا – Sening o'rtangdagi musofir sendan ustun va sen undan pastdasan.

كل منهما يستعلي على الحاضر وينكر التاريخ – Ulardan har biri hozirdan faxrlanadi va tarixni inkor qiladi.

يستعلي على عدد من النقود تنفق هنا أو هناك – U bu yerda yoki boshqa joyda sarflagan pullari bilan faxrlanadi.

2) Pastga yo'nalgan harakat fe'llari:

Bunday fe'lllar qatoriga bir qancha fe'lllar kiradi. Ularni ko'rib chiqaylik.

خط (a/u) fe'lining asosiy ma'nosи "qо'ymоq, о'rnashtirmоq, joylashtirmоq, solmoq" bo'lib, "olmoq, olib qо'ymоq", "to'xtatmoq" ma'nolarida ham qо'llaniladi. Masalan:

خط الكتاب على الطاولة – U kitobni stolga qо'ydi.

خط الرحال – lager qurmoq, lager bo'lib joylashmoq, (biror joyga) ko'chib borib joylashmoq;

خط عنه الأغلال – (biror k.ni) kishandan bo'shatmoq (ya'ni, kishanni olib qо'ymоq) .

خط fe'li ayrim hollarda "qо'nmoq, tushmoq, pastlamoq, yerga qо'nmoq (samolyot haqida)" deb ham tarjima qilinadi.

من غلو إلى سفل خط الشخص – Kishi tepadan pastga tushdi.

خط الطائرة الى المطار – Samolyot aeroportga qо'ndi.

خط طائر الأخضر الصغير الفضولي على حافة النافذة ليطلع إلى الداخل – Kichkina yashil qushcha deraza tokchasiga o'tirib, ichkariga nazar tashladi.

خط سعرة – Uning narxi tushdi.

خط fe'li old ko'makchisi bilan kelib "(biror n. ni) kamaytirib ko'rsatmoq, kamaytirmоq" ma'nosida tarjima qilinadi. Masalan:

خط الرجل من سمعة زميله – Kishi hamkasbini obro'sizlantirdi (e'tiborini ketkazdi).

خط من قدره – biror kimni qadr-qimmatini yerga urmoq;

خط من قيمته – biror narsani bahosini pasaytirmоq;

Pastga yo'nalgan harakatni anglatuvchi keying fe'limiz (a/i) خَرَ (tiz) cho'kmoq, (oyog'iga) yiqilmoq", "tommoq, oqmoq, chakka o'tmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu fe'lning tarjimada kelishiga e'tibor beraylik.

– خَرَّ الْبِنَاءُ – Bino buzuldi

– خَرَّ الشَّخْصُ – Shaxs (tepadan) yiqildi

– خَرَّ بَيْنَ قَدَمَيْهِ – Uning oyoqlariga yiqildi

Bu fe'lning old ko'makchilar kelganda ma'nolarining o'zgarishiga duch kelmadi.

Shunday fe'llardan yana biri صَبَّ (a/u) "to'kmoq, oqizmoq, to'kib tashlamoq", "quymoq, qolipga quymoq" fe'li asosan على old ko'makchisi bilan keladi. Masalan:

صَبَّ عَلَيْهِ سَوْطَ الْفَمَةِ - Unga o'z g'azabinin to'kib soldi.

صَبَ جَامٌ غَضْبَهُ عَلَى الْعَدُوِّ؛ صَبَ عَلَى الْعَدُوِّ [العنات] Dushmanni la'natladi, dushmanga la'nat o'qidi.

صَبَّ بِرْعَهُ عَلَيْهِ – Unga sovut kiygazdi

كَمْنٌ يَصْبُّ الرَّئِسَ عَلَى النَّارِ – Yonib turgan o'tga yog' sepgan kimsadek

صَبَّ الرَّجُلَ فِي الْقَيْدِ – Oyoqni bog'ladi

صَبَ fe'li a/i o'rtalik unli harakatlari bilan "oqmoq, oqib ketmoq, oqib tushmoq (daryo haqida)" ma'nolari bilan keladi. Bunda ham fe'l turli old ko'makchilar bilan keladi va ma'no o'zgarishlar uchramaydi. Faqat avvalgisidagidek matn tarjimasida turlicha berilishi mumkin. Huddi shu ma'nolarda V (تصبّ) va VII (انصبّ) boblarda ham uchraydi. VII bobi على old ko'makchisi bilan kelganda "(n.gadir) tashlanmoq, berilmoq, qaratilgan (yo'naltirilgan) bo'lmoq" ma'nolariga ega bo'ladi.

انْصَبَ عَلَى أَعْمَالِهِ – U o'z ishlariga berilib ketdi

انْصَبَ الصَّفْرُ عَلَى الصَّيْدِ – Lochin o'ljaga tashlandi

Fe'l old ko'makchisi bilan ham, إلى old ko'makchish bilan ham bir hil holatda ishlatilishi mumkin.

انْصَبَ إِلَى الْمَذَاكِرَةِ لِيَلًاً / انْصَبَ عَلَى الْمَذَاكِرَةِ لِيَلًاً – Tunda muzokaraga berildi

انْصَبَ اهْتِمَامَهُ إِلَى الْبَحْثِ الْعَلْمِيِّ / انْصَبَ اهْتِمَامَهُ عَلَى الْبَحْثِ الْعَلْمِيِّ Diqqat - e'tuborini imiy tadqiqotga qaratdi.

Harakat fe'llaridan "cho'kmoq, suvgaga g'arq bo'lmoq" في غَرْقٍ (a) غَرَقَ old ko'makchisi va so'zlar bilan turli ma'nolarda tarjima qilinadi. Masalan:

غرق فالياس – Umidsizlikka tushdi

غرق في العمل إلى أذنيه – Ishga bor - budi bilan sho'ng'ib (berilib) ketdi.

عينان غارقتان في الموضع – Ko'zlar yoshlarga to'ldi

غرق في دُيُونٍ لا حَصْرَ لَهَا – Qutulib bo'lmaydigan qarzga botdi.

غرق في اللَّوْمِ – Uyquga cho'mdi (uxladi)

غارق في أفكاره – xayollariga cho'mgan (berilgan)

غرقوا في أحاديث طول اللَّيْلِ – Tuni bilan suhbatga berildilar (suhbatlashdilar)

Arab tilida eng ko‘p ishlatalidigan harakat fe’llaridan biri نَزَلَ (i) “نَزَلُ” (n.dandir) tushmoq, pastlamoq (من); yetgan joyga borib tushmoq; din. nozil bo‘lmoq (Qur’oni Karim haqida)” fe’li bo‘lib, u turli o‘rinlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin. Har qanday holatda ham u yuqoridan pastga yo‘nalgan harakatni bildiradi. Masalan:

– نَزَلَ مِنْ أَعْلَى الْجَبَلِ – Tog‘ tepasidan tushdi

– نَزَلَتِ الْأَسْعَارُ – Narxlar tushdi (pasaydi)

– يَنْزَلُ الْمَطَرُ – Yomg‘ir yog‘yapti

harakat fe’li old ko‘makchilari bilan yoki ko‘makchisiz tushum kelishigida نَزَلَ في ، بِ نَزَلَ “mehmonxonaga) tushmoq, qo‘nmoq, joylashmoq” ma’nolarida ishlataladi.

– فَإِذَا نَزَلَ إِسْكَانَهُمْ فَسَاءَ صَبَاحُ الْمُئَنَّدِينَ – Qachonki u ularning hovlisiga tushganida, ogohlantiriganlarning tongi juda yomon bo‘lur. [6:452]

- نَزَلَ الضَّيْوَفُ الْأَجَانِبُ فِي الْفَنْدُقِ الْقَرِيبِ مِنْ مَنْزِلِنَا - Xorijlik mehmonlar uyimizga yaqin mehmonxonaga joylashdi.

– نَزَلَ الْفَنْدُقُ / نَزَلَ بِالْفَنْدُقِ / نَزَلَ فِي الْفَنْدُقِ – Mehmonxonaga joylashdi

– نَزَلَ الْعَاصِمَةُ / نَزَلَ بِالْعَاصِمَةِ / نَزَلَ فِي الْعَاصِمَةِ – Poytaxtga tushdi (joylashdi)

Bu fe’l old ko‘makchisi bilan kelganda orttirma nisbat fe’l ma’nosiga ham o‘zgaradi. Agar نَزَلَ منْ tushmoq” bo‘lsa, “(k. nidir) tushirmoq, pastlatmoq, yetgan joyga tushirmoq, olib tushmoq” ma’nosida tarjima qilinishi mumkin.

– نَزَلَ بِهِ الرُّوحُ الْأَمِينُ – Uni Ruhul Amiyn olib tushdi [6:375]

– نَزَلَ بِهِمَا فِي الْقَرْيَةِ – Ular ikkisini qishloqqa tushirdi (masalan, avtomobildan)

Huddi shu old ko‘makchi bilan “duchor bo‘lmoq, yo‘liqmoq, boshga tushmoq” manosida ham ishlataladi.

fe’li بِ نَزَلَ bilan kelganda “duchor bo‘lmoq, yo‘liqmoq, boshga tushmoq” ma’nosida kelib, asosan falokatlar, ofatlar haqida gap ketganda ishltildi. Masalan;

– نَزَلَ بِهِ الْمَرْضُ – U kasallikka yo‘liqdi.

– نَزَلَتْ بِهِمُ الْكَوَارِثُ وَالْمَصَائِبُ – Ular falokat va musibatlarga duchor bo‘ldilar.

– نَزَلَتْ بِهِ الْعَقَارِبُ / الشَّدَائِدُ – U balolar / ofatlarlarga uchradi.

– نَزَلَتْ بِهِ الْفَلَيقَةُ / الدَّاهِيَةُ – Uning boshiga balo / falokat tushdi.

fe’li عند نَزَلَ old ko‘makchisi bilan qo‘llanilishi mumkin. Bunda u (biror n.ga) marhamat qilmoq, iltifot ko‘rsatmoq” kabi ma’nolarda ishlataladi.

– نَزَلَ عِنْدَ رَغْبَةِ صَدِيقِهِ – U do’stining xohishini qondirdi (amalga oshirdi).

– نَزَلَ عِنْدَ إِرَادَةِ وَالْإِدَهِ – Otasining xohish - irodasini bajardi.

Bu fe’l على old ko‘makchisi bilan kelganda esa semantik ma’nosи o‘zgarib, “(n. gadir) qo‘shilmoq” ma’nosida kelishi mumkin.

– نَزَلَ عَلَيْنَا الرَّجُلُ وَأَصْبَحْنَا لَهُ خَدْمًا – Kishi bizga qo‘sildi va biz unga yordam bera boshladik.

نزل على رأي الأغلبية - U ko‘pchilikning fikriga qo‘shildi.

نزل على حكمه - U uning qaroriga qo‘shildi.

Huddi shu old ko‘makchi bilan “(k.gadir) tashlanmoq”; “(qayergadir) kirmoq” ma’nolarida ham ishlatiladi.

نزل عليه بالسوط – Unga qamchi bilan tashlandi (urdi).

نزل ضيقاً عليه - Unikiga mehmon bo‘lib keldi (kirdi).

نزل fe’lining yana bir xususiyati, u ikkita old ko‘makch bilan qo‘llanilib ham turli ma’nolarni anglatadi. Bu ma’nolar uning birlamchi ma’nosidan katta farq qiladi. Masalan, من ، ب old ko‘makchilari bilan kelsa “(n. nimir) rad qilmoq, qaytarmoq”; من عن old ko‘makchilari bilan kelsa “(n. dandir) qaytmoq” ; ل ، عن ل ko‘makchilari bilan kelganda esa (n. nimir k. ningdir foydasiga) o‘tib bermoq, kamitmoq, chegirmoq” ma’nolarida tarjima qilinadi.

نزل عن الحق \ نزل من الحق - U haqiqatdan qaytdi (voz kechdi)

Bu fe’lning boshqa boblariga e’tibor beraylik. II “(to‘lov miqdorini) tushirmoq, pasaytirmoq”, “tushirmoq, pasaytirmoq”, “(mehmonni) joylashtirmoq, joylamoq”, “din. (biror. n.) nozil qilmoq”. ب old ko‘makchisi bilan kelganda “naqsh solmoq”.

أنزل IV “tushmoq, tushirmoq, joylashtirmoq”, “din. (biror. n.) nozil qilmoq”.

V شَرَّلَ “asta-sekin pastlamoq, pastga tushmoq”. عن old ko‘makchisi bilan kelganda semantik ma’nosni o‘zgaradi va “(n.gadir) ko‘nmoq, rozi bo‘lmoq; (n. dandir) qaytmoq, orqaga qaytmoq, chekinmoq, voz kechmoq” ma’nolarini anglatadi. VI bobda ham ayni ma’noni ko ‘rishimiz mumkin.

شَرَّلَ / تَنَازَلَ عن الحق - U haqiqatdan qaytdi (voz kechdi)

شَرَّلَ / تَنَازَلَ عن العرش - U taxtdan voz kechdi.

هَبَطَ (u, i) “tushmoq, pastlamoq; qo‘nmoq (qush haqida); pasaymoq, yerga qo‘nmoq (samolyot haqida)” fe’li yuqoridagi نزل fe’lining sinonimidir. Lekin unga nisbatan kamroq istemolda va bir qator ko‘makchilar bilan keladi.

هَبَطَ الولدُ السلم - Bola shoti (narvon) dan pastga tushdi

هَبَطَ الطيَارُ بِالْمَظَلَّةِ - Uchuvchi parashyutda tushdi.

هَبَطَ إِلَيْهِ الْوَحْيُ - Uning ilhomini keldi

هَبَطَ جَسْمُهُ مِنَ الْمَرْضِ - U kasallikkdan ozib ketdi

Bu fe’l old ko‘makchisi bilan kelganda “(qayergadir) jo‘namoq” ma’nosini berishi mumkin.

هَبَطُوا إِلَى الْعَاصِمَةِ - Ular poytaxtga jo‘nadilar

Pastga yo‘nalgan harakat fe’llaridan yana biri هَوَى ، هَوَيَانٌ (i) “yiqilmoq, tushmoq, pastga sho‘ng‘imoq (qush haqida), sho‘ng‘imoq (samolyot haqida)” fe’li ب old ko‘makchisi bilan kelib, ma’nosni orttirma nisbatga o‘zgaradi va “(nimani) tushirmoq; (bahoni, narxni) pasaytirmoq”; urib tushirmoq (mas., samolyotni)” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

هَوَتَ الْحَجَارَةُ مِنَ الْجَبَلِ - Tog‘dan tosh quladi

- هَوَى التِّسْرُ عَلَى الْعَصْفُور Burgut chumchuq tomon sho‘ng‘idi

- هَوَى بِالْفَأْسٍ عَلَى جَذْعِ الشَّجَرَة U daraxt tanasiga bolta bilan tushirdi (urdi)

Old ko ‘makchilar yordamida ma;no o‘zgarishini هَوَى fe’lining boshqa boblarida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, II bobda هَوَى aslida “shamollatmoq (mas., xonani)” ma’nosida kelsa old ko‘makchisi bilan “(biror n. bilan) elpimoq” bo‘ladi.

- هَوَى السَّخْنُ الْمَنْزَل Kishi uyni shamollatdi

- هَوَتْ امْهَا بِمَرْوَحَةٍ Onasini elpig‘ich bilan elpidi.

IV bobda “يَقِيلْمُوكْ” fe’li old ko‘makchilari bilan “yuqoridan (k. yoki n. ningdir) ustiga (n. bilandir) tepadan tashlanmoq” ma’nosida keladi.

- أَهْوَت الصَّرَخَةُ مِنْ أَعْلَى الْجَبَل Xarsang tog‘ tepasidan quladi

- أَهْوَى الْعَقَابُ لِلصَّيْد Burgut o‘ljaga tashlandi

- أَهْوَى السَّخْنُ بِالْعَصَاصِ Kishi yog‘och bilan tashlandi

- أَهْوَى بِسُوطِهِ عَلَى جَسَدِهِ U qamchish bilan unga tashlandi (uning badaniga urdi)

Bu fe’l ko‘makchisi bilan yana (n. nidir) tushirmoq”, “(n. bilandir) yelpinmoq”, “(biror n. ni cho‘zmoq, uzatmoq”, “(n. gadir) ishora qilmoq” ma’nolarida keladi.

- أَهْوَى بِنِيهِ لِلصَّحْنِ Qo‘lini tarelkaga uzatdi

- أَهْوَى بِحَرَكَةً Harakat bilan ishora qildi

Arab tilidagi harakat fe’llari bilan asosan على ، ل ، عن ، من إلى ، في ، ب old ko‘makchilari qo‘llaniladi. Arab tilida harakat fe’llari juda keng istemolda bo‘lib, ularning old ko‘makchilar ta’sirida ma’nolarining o‘zgarishini tahlil etish, leksik-semantik jihatdan o‘rganish jiddiy tadqiaotlarni talab etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Аҳ – Наим. Арабча – ўзбекча луғат. – Т.: “Абдулла Қодирий”, 2003.
2. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi. – Т.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2024.
3. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. -Т.: “Шарқ”, 2009,
4. Халидов Б. З. Учебник арабского языка. – Т.: Ўқитувчи, 1977.
5. Rovvaq Samah. ‘Af’al al-harakat fi Divan min al-‘atlas. Cukra., 2004.
6. Al-Munjid fi al-lug’a va al-‘ilm. Bayrut., 1994.